

**Kalonxonov Maruf Sirojiddinovich**

Yangiyo 'l shahar I-son  
kasb-hunar maktabi direktori

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pedagogik nizolar va uning determinantlari berilgan. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Hozirgi kunda ta'lim va tarbiya jarayoniga qo'yilayotgan talablar, ta'lim muassasalari, o'quvchilar guruhlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar va tarbiyaviy ishlarning o'ziga xos jihatlari bor. Unda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaida bir qancha ziddiyatlar va nizolar kelib chiqishi mumkin va bunday hollarning oldini olish muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** determinant, pedagogik nizo, ichki ziddiyat, tashqi ziddiyat

Pedagogik nizoning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda turli mavqega ega bo'lgan, turli ijtimoiy guruhga mansub vakillar to'qnashadilar. Psixologik nuqtai nazardan nizo - ehtiyojlar, yo'naliishlar, qiziqishlar va fikrlarning to'qnashuvini ifodalaydi. Nizoni ziddiyatdan farqlovchi asosiy belgilar qarama-qarshi turishning emotsiyal jiddiyligi, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilarning salbiy kechinmalari – g'azab, sha'nining tahqirlanishi, kamsitilishi, qo'rquv, nafrat va boshqa yengib o'tish o'g'ir bo'lgan jahning keskinligi bilan ifodalanadi.

**Ichki va tashqi ziddiyatlarni** yengib o'tish ham o'quvchi, ham o'qituvchilarning shaxsiy takomil manbai bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat qiluvchi ziddiyatlar muloqot sub'yeqtalarining bir sifat holat (intellektual, hissiy, irodalilik)dan boshqa sifatga o'tishiga imkoniyat beradi va sub'yeqtalararo hamkorlikni rivojlantirishga ijobjiy yordam beradi.

Shaxslararo **ziddiyatlar chuqur** va **yuzaki, uzoq** va **qisqa muddatli** turlarda bo'lishi mumkin.

O'qituvchidan o'quvchilar bilan kundalik faoliyati mobaynida duch keluvchi turli ziddiyatlarni yengish uchun undan yuqori darajadagi muloqot qilish tajriba va malakalari talab etiladi. Bunday malakalarning asosi bo'lib **insonparvarlik texnologiyalarini** qo'llash, ko'r-ko'ronalikdan qochish, o'quvchilar bilan yaqindan muloqot o'rnatish hisoblanadi. Agar o'qituvchi tomonlar orasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish yo'lini izlamasa, o'quvchilar orasidagi munosabatlarni bir-biriga yaqinlashtirmassa, yuzaga keluvchi muammolarni hamkorlikda hal etishga yo'naltirmassa, fikrda mushtaraklik izlanmasa, u holda shaxslararo nizo saqlanib qolaveradi. O'qituvchi va o'quvchilarning vazifalari va ijtimoiy rollaridagi farq bo'lishiga qaramay, ularni hamkorlikdagi faoliyat shakli umumlashtirib turadi.

Nizo kelib chiqishi uchun sheriklarning qarama-qarshi yo'naltirilgan maqsadlari va holatlarining mos kelmasligi yetarli emas. Buning uchun o'zaro munosabatlarni keskinlashtiruvchi pedagogik vaziyat mavjud bo'lishi lozim. Bunday pedagogik vaziyatni ishga solish mexanizmini aniq to'qnashuv bajaradi va ziddiyatli o'zaro

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

harakatlarni vujudga keltiradi. Bunday harakat muloqotdagi ko‘ngilsiz tashqi signal bo‘lib, bunda tomonlardan biri ikkinchisining qiziqishlarini cheklagan holda harakat qila boshlaydi.

Pedagogik nizo hamkorlik faoliyatidagi ziddiyatning in’ikosi hisoblanadi. U qanchalik murakkab bo‘lsa, o‘zaro munosabatlarning tarkibiy qismlarga ajralish xavfi shunchalik kuchayib boradi.

O‘qituvchi va o‘quvchi orasida ro‘y beradigan har qanday to‘qnashuvlar ham psixologik nuqtai nazardan buzuvchilik darajasida bo‘lmaydi. Ziddiyat kabi nizo ham ijobiy va salbiy tomonlarni birlashtiradi. Ziddiyatlarni bartaraf etish madaniyati hamkor tomonlarning intellektual, hissiy va irodaviy faolligini oshiradi, o‘zaro munosabatlarni yanada yuqori darajaga ko‘taradi.

*Har qanday nizoli vaziyat nizoga aylanmaydi.* Agar muloqot vaziyatini mojaroyuzaga kelguncha o‘zgartirilsa, to‘qnashuvni juda kam psixologik yo‘qotish bilan yengib o‘tish mumkin. Nizoli vaziyatlarni o‘zgartirish usullari aynan uni hal etish usullari bo‘lib ham hisoblanadi. To‘qnashuv uni yuzaga keltirgan holatni bartaraf etish bilan yo‘qoladi.

Nizo sub’yektlarining muomaladan ta’sirlanishi rang-barang bo‘lib, ularning shaxsiy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Bunday xususiyat sifatida ochiq, yopiq va sust e’tirozlar chiqishi mumkin.

O‘quvchilar nizoli xulqining asosiy shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kishining g‘ashiga tegadigan harakatlar va qiliqlar (pedagogik talablarni inkor qilish, o‘qituvchi fikriga qiziqmaslik, mashg‘ulotlarga qatnashmaslik);
- sust norozilik (indamay uzoqlashiš, xafalik, ko‘z yoshlari);
- ig‘vogarlik harakatlari va qiliqlari (“ilmoqli” savollar, beg‘araz sho‘xlik qilish va o‘qituvchini noqulay ahvolga qo‘yuvchi qiliqlar).

Pedagogik jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida turli nizolarning kelib chiqishiga, nafaqat oquvchilar, balki o‘qituvchining o‘zi ham sababchi bo‘lishi mumkin. Uning nizoni yuzaga keltiruvchi fe'l- atvori ham o‘ziga xos turlarga ega. Bu turlar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- qo‘pollik;
- qo‘rqtish;
- gaplashmaslik;
- kamsitish.

Nizolarning oldini olish, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlarni o‘rnatish mahorati bilan boshlanadi. Bu murakkab jarayon, chunki o‘qituvchi o‘ziga bo‘lgan turli-tuman: ijobiy va salbiy, teskari ijobiy, teskari salbiy, loqayd-qiyofasiz kabi munosabatlar bilan to‘qnashuvlarga duch keladi.

Nizoni faqat ijobiy munosabatgina bartaraf etish mumkin. Shunday munosabatgina yuzaga keluvchi shaxslararo ziddiyatlarni osonlik bilan yengishga imkoniyat beradi, chunki bunda o‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham maqsad sari intilishda hamkor sifatida birlashadidir.

Pedagogik nizolarni boshqarish pedagogik jarayonda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan kommunikativ mushkullikkarni oldindan ko‘ra bilish, o‘z vaqtida uning oldini olish

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

choralarini ko‘rish, ziddiyat keskinlashuvining ob’yektiv va sub’yektiv sabablarini aniqlash va ularni asosli ravishda bartaraf etishdan iborat.

Pedagogik nizo sifatida ohista o‘tayotgan jarayonga quyidagi bosqichlar xosdir:

- 1) ziddiyatlarning paydo bo‘lishi;
- 2) uni anglab yetish;
- 3) keskinlashishi;
- 4) tartibga solish yo‘llarini izlash;
- 5) hal etish.

O‘zaro nizolarni boshqarishni moslashish, bosh tortish, chekinish, murosa qilish, hamkorlik, ustun bo‘lish kabi pedagogik strategiya turlariga ajratish mumkin.

O‘qituvchi kommunikativ madaniyatining yorqin ko‘rsatkichidan iborat bo‘lgan pedagogik nazokat, uning o‘quvchilar bilan sodir bo‘ladigan o‘zaro ziddiyatlarni yengib o‘tishining universal quroolidir. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida bir qancha ziddiyatlar va nizolar kelib chiqishining oldini olish uchun maxsus treninglar o‘tkazish mumkin. Masalan , “Ziddiyatlarni yechish uslubingiz” treningini ko‘rib chiqamiz.

### **Maqsad:**

- har bir qatnashchiga ziddiyatni yechishda o‘z uslubini topishga yordamlashish;
- o‘qituvchida ziddiyatning yechimini izlash va aniqlash malakalarini shakllantirish.

**Kutiladigan natija:** har bir o‘quvehi ziddiyatlarni yechishda o‘z uslubini aniqlaydi, o‘qituvchi o‘quvchilar va ularning ziddiyatlarga munosabatlarini bilib oladi.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi.** Mashg‘ulot boshlanishida o‘qituvchi ishtirokchilarni trening o‘tkazish qoidalari bilan tanishtiradi va u uch bosqichdan iboratligini aytadi.

*Birinchi bosqichda* har qanday qatnashchi alohida kartochka oladi va uni yakka tartibda to‘ldiradi, *ikkinci bosqichda* o‘z ishining natijalari bilan boshqalarni tanishtiradi va *uchinchchi bosqichda* natijalar bo‘yicha umumiy maslahatlar beradi.

Tushuntirishdan so‘ng o‘qituvchi har bir o‘quvchiga quyidagi mazmundagi kartochkani tarqatadi.

### **1-kartochka. Ziddiyatlarni yechishda Sizning uslubingiz...**

Kartochkaning pastdagi satrlariga yozilgan bo‘limlar o‘qilgandan so‘ng, shu yoki boshqa xulq Sizga ham taalluqlimi yoki taalluqli emasligini ko‘rsating va javobingizga mos ravishda kerakli ballni qo‘ying (javob variantlari: tez-tez – 3 ball, ba’zan – 2 ball va kamdan-kam – 1 ball).

1. Siz ziddiyatli holatlarda, masalan, urishganingizda o‘zingizni qanday tutasiz?
2. Dushmanimning nuqtai nazarini tushunishga va u bilan hisoblashishga harakat qilaman.
3. Yechim qidiraman.
4. Oxirigacha ishonmasamda, nohaq bo‘lishim mumkin, deb o‘ylayman.
5. Dushmanimdan qochaman.
6. Nima bo‘lsa ham o‘z maqsadimga erishishni xohlayman, shunga intilaman.
7. Men nimani ma’qullayman-u, nimani muqlaqa ma’qullamasligimni aniqlashga harakat qilaman – bu ziddiyat maydonini toraytirishi mumkin.
8. Murosaga boraman.

**MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS**

9. Yengilaman.
10. Mavzuni o‘zgartiraman.
11. O‘z maqsadimga erishmagunimcha yengilmayman.
12. Ziddiyatning kelib chiqish sababini aniqlashga harakat qilaman.
13. Ozgina yon bosaman va boshqa tomonning ham yon bosishiga turtki beraman.
14. Tinchlikni taklif qilaman.
15. Hammasini hazilga burishga harakat qilaman.

Endi qo‘yilgan ballarni savollarning tartib raqamiga binoan chizmaga tushiring.

- | A         | B         | S         | D         | E         |
|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 1. _____  | 2. _____  | 3. _____  | 4. _____  | 5. _____  |
| 6. _____  | 7. _____  | 8. _____  | 9. _____  | 10. _____ |
| 11. _____ | 12. _____ | 13. _____ | 14. _____ | 15. _____ |

Qaysi ustundagi umumiy ball eng yuqori bo‘ldi? Bu Sizning ziddiyatlarni yechish uslubingizga qo‘yilgan balldir.

O‘quvchilar kartochkalarni to‘ldirib bo‘lishgach, o‘qituvchi mashg‘ulotning ikkinchi bosqichiga o‘tadi va 2-kartochkani tarqatadi. Bu kartochka orqali har bir o‘quvchi ustunlarga qo‘yilgan javoblarning umumiy ball eng yuqori bo‘lgan va keyingilariga qarab ziddiyatlarning yechish uslublarini aniqlaydilar va shunga tegishli bo‘lgan tavsif bilan tanishadilar.

**2-kartochka. Ziddiyatlarni yechishda sizning uslubingiz (aniqlab oling):**

A – “**qattiqqo‘l**” uslubiga mos.

Sizning fikringizda hech qanday xato va kamchiliklar yo‘q, o‘z nuqtai nazaringizni himoya qilasiz va oxirigacha o‘z fikringizda turasiz.

B – “**kelishuv**” uslubi.

Siz hamma vaqt kelishish mumkin degan fikrga amal qilasiz.

“**Ikki bosh bittadan afzal**” maqoliga rioya qilasiz. Bahs paytida Siz yana boshqa fikr taklif qilasiz. Ikkala tomonni qoniqtiradigan yechimni qidirasiz.

S – “**murosaviy**” uslub.

Boshidanoq siz murosaga rozisiz.

D – “**yumshoq**” uslub.

O‘z dushmaningizni yumshoqlik bilan yengasiz. Dushmanning fikrini ma’qullaysiz, o‘z fikringizdan qaytasiz.

E – “**ketuvchi**” uslub.

Sizning aqidangiz – vaqtida ketish. Siz holatni chigallashtirmaslikka va ochiq to‘qnashuvga sabab bo‘luvchi ziddiyat ro‘y bermasligiga harakat qilasiz.

Ko‘pchililingizga ziddiyatli holatlarda turli usuldagi xulq xosdir.

Ziddiyatlarni yechishni besh turning har biri aniq holatlarda o‘zining ijobiyl va salbiy tomonlariga ega.

“**Qattiqqo‘l**” uslubi – o‘zingiz haq ekanligingizga ishonch hosil qilmagan va asoslashga vaqt bo‘lgan, tez harakat qilish zarur bo‘lgan hollarda yaxshi uslubdir.

“**Kelishuv**” – ikkala tomon uchun ham foydali, ziddiyatning yechimiga yordam beradi, bahslashuvchilar orasida samimiyl munosabatni saqlaydi.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

“Murosaviy” – ikki turli kuchni to‘qnashuvining oldini oladi. Dushman fikrini ma’qullab, ko‘p narsa yutqazilmaydi.

Uslublarning oxirgi ikkitasining mazmuni o‘z nomlaridan ayon bo‘lib turibdi.

Keltirilgan test natijalari o‘quvchi xulqini oldindan bilish uchun asos bo‘ladi yoki shunday bo‘lishi shart, deb aytrish qiyin, lekin Sizning muammolaringiz, ziddiyatli holatlaringizning ba’zilarini yechishda yordam berishi mumkin.

Mashg‘ulotning uchinchi bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan trening to‘g‘risida fikr almashadi, muhokama qiladi va yakunlaydi.

Xullas, ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Hozirgi kunda ta’lim va tarbiya jarayoniga qo‘yilayotgan talablar, ta’lim muassasalari, o‘quvchilar guruhlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar va tarbiyaviy ishlarning o‘ziga xos jihatlari bor. Unda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida bir qancha ziddiyatlar va nizolar kelib chiqishi mumkin va bunday hollarning oldini olish uchun maxsus treninglar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

